

ISSN 2181-2659



**TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA**
ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024/№ 1

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnal

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2024-yil 1-son

DENOV - 2024

Tadbirkorlik va pedagogika jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentyabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00-Pedagogika fanlari bo'yicha OAK nashrlari ro'yxatiga [kiritilgan](#). The journal was included in the list of publications on Pedagogical Sciences at 13.00.00 based on the decision of the HAC (the Higher Attestation Commission) No. 325/5 dated September 30, 2022.

Tahrir kengashi raisi:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich - filologiya fanlari doktori, professor, DTPI rektori.

Bosh muharrir: Mamajonov Rahmatilla Yakubjanovich – texnika fanlari nomzodi, dotsent, DTPI prorektori.

Mas'ul muharrir: Ro'zieva Inobat Jo'raevna biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Jurayev Boxodir Turdaliyevich – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Tahrir hay'ati a'zolari:

Sol Von Te (Janubiy Korea) – PhD, DTPI.

Salimov Rustam (Tojikiston) – DSc, professor, Tojikiston-slavyan universiteti.

Musurmankulova Madina Nosirovna - PhD, DTPI.

Sodiqova Bahtigul Ibodullayevna – doktorant, DTPI.

Berdinazarov Zafar Ulashovich – DSc, dotsent, DTPI.

Sattorov Odil Berdinazarovich - DSc, dotsent, "El-yurt umidi" jamg'armasi direktor o'rinbosari.

Ostonokulov Azamat Abduraimovich – DSc, professor, Toshkent Moliya instituti.

Melikov Otabek Maxmadaminovich – PhD, DTPI.

Xudoyqulov Xol Jumaevich – DSc, professor, O'zMU.

Maxmudov Yusuf - DSc, professor, TerDU.

Mirzayev Mutalib Jo'rayevich – PhD, dotsent, DTPI.

Shukurov Rustam Eshonqulovich – PhD, DTPI.

Qurbannazarova Ra'no – DSc, professor, O'zFA Ilmiy tadqiqot instituti.

Yormatova Dilarom – DSc, professor, O'z DJTU.

Raupova Nodira – DSc, professor, O'zMU.

Ro'ziyeva Inobat Jo'rayevna - PhD, DTPI.

Tursunov Saypulla – DSc, professor, TerDU.

Qobilov Eshbolta Otamurodovich - DSc, professor, Termiz iqtisodiyot va servis instituti.

Shaydullaev Shopulat Bozorovich - DSc, professor, TerDU.

Nazirov Bahtiyor Safarovich – PhD, DTPI.

Navruzova Gulchehra Negmatovna – DSc, professor, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

Masharipova Guloram Kamilovna - DSc, professor, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

Xo'janova Tamara Jo'rayevna - PhD, DTPI.

Radjabov Bahtiyor – DSc, professor, ChDPU.

Nishanov Akram Xasanovich - DSc, professor, TATU.

Bobomurodov Ozod Jo'raevich - DSc,

(O'zbekiston Bashkiriya pedagogika instituti).

Allakov Ismoil - DSc, professor, TerDU.

Mirsoburov Mirrakhmad - DSc, professor, TerDU.

Qosimov Odilbek Yunusovich – PhD, TISU.

Mamataliev Abdurasul Abdumalikovich – DSc,

dotsent, O'zFA Noorganik kimyo tadqiqotlari instituti.

Eshqurbonov Furqat Bozorovich DSc, dotsent, TerMI.

Eshqarayev Ulug'bek Choriyevich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent PhD, DTPI.

Chairman of the editorial board:

Rakhimov Ganisher Khudoykulovich - doctor of philological sciences, professor, rector of DIEP.

Editor-in-Chief: Mamajonov Rahmatilla Yakubjanovich - candidate of technical sciences, associate professor, Vice-rector of DIEP.

Responsible editor: Allayarova Solikha Narzulloevna- DSc, associate professor of DIEP.

Responsible secretary: Juraev Bokhodir – doctor of philosophy in historical sciences.

Members of the editorial board:

Sol Won Tae (South Korea) – PhD, DIEP.

Salimov Rustam (Tajikistan) - DSc, professor, TajikSlavic University.

Musurmankulova Madina Nosirovna – PhD, DIEP.

Sodikova Bakhtigul - doctoral student, DIEP.

Berdinazarov Zafar Ulashovich - DSc, Associate Professor, Vice-rector of DIEP.

Sattorov Odil - DSc, Associate Professor, Deputy Director of "El-Yurt Umid" Foundation.

Ostonokulov Azamat Abduraimovich - DSc, Associate Professor, Tashkent Financial Institute.

Melikov Otabek Makhmadaminovich – PhD, DIEP.

Khudoykulov Khal Jumaevich - DSc, professor, UzNU.

Makhmudov Yusuf Ganievich - DSc, professor, TerSU.

Mirzayev Mutalib Zorayevich – PhD, DEPI.

Shukurov Rustam Eshankulovich – PhD, DEPI.

Kurbannazarova Rano - DSc, professor, Scientific Research Institute of Uz SA.

Yormatova Dilarom - DSc, professor.

Raupova Nodira Bakhramovna - DSc, professor.

Roziyeva Inobat Jorayevna - PhD, DIEP.

Tursunov Saipulla - DSc, professor, TerSU.

Kabilov Eshbolta Otamurodovich - DSc, professor, Termiz Institute of Economy and Service.

Shaidullaev Shopulat - DSc, professor, TerSU.

Nazirov Bakhtiyor Safarovich - PhD, DIEP.

Navruzova Gulchehra Negmatovna - DSc, professor, Bukhara engineering-technology institute.

Masharipova Guloram Kamilovna - DSc, professor, Tashkent Textile and Light Industry Institute.

Xhojanova Tamara Jorayevna - PhD, DIEP.

Radjabov Bahtiyor - DSc, professor, ChSPU.

Nishanov Akram Khasanovich - DSc, professor, TITU.

Bobomurodov Ozod Jorayevich - DSc, professor, Branch of Kazan Federal University in Jizzakh.

Allakov Ismail - DSc, professor, TerSU.

Mirsoburov Mirrakhmad - DSc, professor, TerSU.

Qosimov Odilbek Yunusovich – PhD, TESU.

Mamataliev Abdurasul Abdumalikovich - DSc,

Research Institute of Inorganic Chemistry of UzSA.

Eshqurbonov Furkat - DSc, associate professor.

Eshkarayev Ulug'bek Choriyevich - Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, DTPI.

IJTIMOIIY FANLAR

O'zbek ayollar she'riyatida sharqona ruh

Nabiyeva Nodira Saidovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

UDK: 821.512.133

saidovnanodira9@gmail.com

Kalit so'zlar: she'r, qadriyat, milliy ruh, ifoda, ayol ruhiyati, milliy ruh tamoyillari, ijodkor badiiy mahorati.

Annotatsiya. Milliy ruh masalasi ayollar she'riyatida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'zbek ayollari boshqa millat vakilalari bilan ibosi, hayosi, madaniyati, vafodorligi bilan farq qiladi. Albatta bu jihatlar o'zbek shoirlarining she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu asosda o'zbek shoirlarining asarlarini tahlil qilib o'tamiz.

Восточный дух в узбекской женской поэзии

Ключевые слова: поэзия, ценности, национальный дух, экспрессия, женская психика, принципы национального духа, художественное мастерство творца.

Аннотация. В женской поэзии отчетливо просматривается проблема национального духа. Узбекские женщины отличаются от представительниц других народов своими манерами, скромностью, культурой и лояльностью. Конечно, эти аспекты очевидны и в стихах узбекских поэтов. Исходя из этого, кратко проанализируем творчество некоторых узбекских поэтов.

Eastern spirit in Uzbek women's poetry

Key words: poetry, value, national spirit, expression, female psyche, principles of national spirit, artistic skill of the creator.

Abstract. The issue of national spirit is clearly visible in women's poetry. Uzbek women differ from representatives of other nations in their manners, modesty, culture, and loyalty. Of course, these aspects are evident in the poems of Uzbek poets. Based on this, we will briefly analyze the works of some Uzbek poets.

Sharq ayoli nazokat, donolik, kamtarlik andozasidir. U yoqimli gul kabi barchaga go'zalligini, muhabbatini va mehrini beradi. Har bir sharq ayoli noyob va iste'dodlidir. O'zbek she'riyatida bir guruh Qo'qon shoirlari sharq ayollarining go'zalligini kuylagan. Ulardan ba'zilar murakkab taqdirni boshdan kechirdilar, biroq ular qoldirishga muvaffaq bo'lgan izi juda yorqindir. Ularning she'rlaridan iqtiboslar keltiriladi, tarjimayi hollari o'rganiladi. Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Mahzodabegim, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar tog' zumradi singari noyob, lekin juda qadrlidir. Biz adabiyotni, xususan, she'riyatni ko'ngil ehtiyoji deymiz, ruh ozig'i

deymiz. Darhaqiqat, qalb ko'zlarimizning ochilishi, borliqqa muhabbat bilan yashash ishtiyoqimizning ortishi, his-tuyg'ularimizning tarbiyalanishi, bir so'z bilan aytganda, inson ekanimizni anglash uchun ham adabiyotga ehtiyoj sezamiz. Adabiyot – ko'ngilga xizmat qiladi. Agar u milliy ruh bilan sug'orilgan bo'lsa, nur ustiga nur. Shoir yoki yozuvchi jahon adabiyoti durdonalari bilan qanchalar yaxshi tanish bo'lmasin, har qanday umuminsoniy mavzuda qalam tebratmasin, baribir, yozganlarida milliy ruh yashab qolaveradi. Buning ildizini shu millat orasida, shu ruh ta'sirida tarbiya topganiga, bu ruhning ijodkor qon-qoniga ajratib bo'lmas darajada singib ketganiga bog'lashimiz mumkin. Jahon adabiyotidagi har qanday nodir asar zahirida o'sha millatning milliy ruhi mujassam bo'ladi va shuning uchun ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi, jahon kitobsevarlarini o'ziga tortib turaveradi. "Mohiyatan insoniyatga daxldor bo'lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo'ladi" [1, 4-bet]. Xuddi shu maqolada keltirilgan ustozning ba'zi fikrlari asosida mulohazalarimizni davom ettiramiz: "Savol tug'iladi: muayyan ijodkor asarlarida milliy ruh qanday tamoyillar asosida namoyon bo'ladi?"

Bizningcha, ularni quyidagicha tavsif etish mumkin:

- 1) millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlar, millatning orzu-armonlari talqini;
- 2) millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi;
- 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e'tiqodning poetik suratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e'tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi.[1, 5-bet]

Milliy ruh masalasi ayollar she'riyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ibrohim G'afurov ta'biri bilan aytganda, she'rlaridan daryoning ovozi kelib turadigan xalqning sevimli shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning barchaga yod bo'lib ketgan "Begim, sizni Xudoyim..." she'rini milliy ruh nuqtai nazaridan tahlilga qilishga harakat qilamiz. Deylik, mashhur bir she'rni yod aytib yuramiz. Muallifi tilga olinganida esa beixtiyor she'rga qo'shib muallifni ham sevib qolamiz, uning boshqa she'rlarini ham o'qish ishtiyoqi uyg'onadi ichimizda. Sirdaryosi kabi uyg'oq shoiramiz Halima Xudoyberdiyevaning "Begim, sizni Xudoyim..." she'ri ham ana shunday she'rlar sirasiga kiradi. Bu she'r shunchalar xalq orasiga singib, yoyilib ketganki, nazarimizda uni ayollar "madhiya"si desak ham mubolag'a bo'lmaydi. She'rning birinchi misrasidanoq milliy ruhning badiiy talqini yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sha momolarimizdan, Kumushlarimizdan qolgan bebaho so'z "begim" so'zi bizni o'ziga maftun etadi.

Bu she'r g'ururi sevgisi qadar baland, izzirobi sabri kabi chiroyli, rashki muhabbati yanglig' muttasil ma'shuqaning "vafosiz" yorga izhori haqidadir. Har bir misrada ayol deb atalmish xilqatning murakkab xarakteri, hali hanuz yechilib ulgurmag'an jumboq – dunyosi, ko'nglidagi eng inja tuyg'ularining isyoni balqib chiqadi. Lirik qahramon suygan yorini:

Begim, sizni Xudoyim raso qilib yaratgan,

Boshqalarni o'ychan-u, sizni kulib yaratgan,[2, 28-bet]

deya kam-ko'stsiz ta'riflash barobarida bevafoqlikda ham ayblab, yengilgina "savalab" o'tadi.

Sharqda ayol kishi o'zining ibosi, iffati bilan aziz. Shu o'rinda ko'nglidagi hislari tugul, kundalik istaklarini ham zo'rg'a tilga chiqaradigan Sharq qizi uchun muhabbatini ma'shuqqa izhor etish u yoqda tursin, avvalo o'zi uchun tan olishning o'zi ham katta jasorat. Yo'qsa ilk marta ariq bo'yida ko'rgan suyuqlisi deya Kumushlar shuncha iztirob chekarmidi?! Otasi so'zidan chiqolmagan Zebilar bir cholg'a ko'nib ketarmidi? Bu holatni yuragida muhabbat uchquni miltillagan qiz borki chuqur anglashi turgan gap. Misralar orasida parvoz qilayotgan ruhimiz momolardan me'ros kelayotgan mana shu buyuk haqiqatga borib uriladi:

*Qiya tushgan nigohni armonga yo'ymagaysiz,
Qiz qalbiga sevmog'ni osonga yo'ymagaysiz. [2]*

Shoira ta'kidlagani kabi qiz bolaga sevmog' oson ish emas. Muhabbatini qalbida javhar misoli yashirib, saqlab yashash esa millatimiz qizlari orasida qadriyat darajasiga ko'tarilib ulgurgan. Shu misralarning o'ziyoq professor Nurboy Jabborov sanagan milliy ruhning birinchi tamoyiliga to'la javob bera oladi deyish mumkin. Misralarda lirik qahramon ilinj bilan o'tinish barobarida ma'shuqni ogohlantirib o'tadi. Ayolning sabri ming bahodirga dars bo'lishi bor gap. Ammo, har sabrning bir chegarasi bo'lgani kabi:

*Qiyamangiz, u o'zi o'rtanguchi bir bag'r,
Bu bag'rni kenglikda, osmonga yo'ymagaysiz. [2,52-bet]*

Darhaqiqat, ayol qanchalar kuchli, matonatli bo'lmasin u baribir ojiza. O'zini himoya qiladigan, asrab-avaylaydigan insonga doimo muhtoj. Yuqorida aytib o'tganimizdek lirik qahramon o'z yorini hech qachon past darajada baholamaydi. Hatto uni juda yuqori o'rinda ta'riflaydi. Bir tomondan rashk o'tida yonayotgan qahramonimiz ikkinchi tomondan undan voz kechishni xayoliga ham keltirmaydi. Suyuklisini na o'ziga munosib ko'radi, na boshqalarga. She'rdagi millat ayolining o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish kuchini ikkinchi tamoyilimiz isboti deyishimiz mumkin. Asl o'zbek ayoliga xos ruhiyat chiziqlarining shu murakkab nuqtada birlashgani ham diqqatga sazovordir. Bu ta'riflarning isboti sifatida quyidagi misralarga nazar tashlash joizdir:

*Sizni men o'zinga ham loyiq ko'rmam, rosti gap,
O'zgaga bermoq esa tushimga kirmas uxlab.*

Yoki:

*O'zga tortmam cheksam ham shuncha jabr-u jafoni
O'zgaga ham bermasman, Sizdek bir bevafoni!
Begim, sizni Xudoyim raso qilib yaratgan...*

Halima Xudoyberdiyevaning bu she'ri ayol xarakterini ochib beradigan eng go'zal she'rlardan biridir. She'rning ich-ichiga singib ketgan milliy ruh masalasi esa zo'rma-zo'raki singdirilmagan. Balki, o'z-o'zidan, tabiiy ravishda paydo bo'lgan. Shoiramizning bolalikdan eshitib kelgan ertaklari-yu dostonlari, o'qigan kitoblari-yu xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan muhabbati yaqqol namoyondir. Zero, Halima Xudoyberdiyeva suhbatlaridan birida shunday deydi: "Onamning ovozi shirali, xirgoyilari chiroyli edi. Bu satrlarning ma'nosini chuqur tushunmasam-da, u kishiga qo'shilib xirgoyi qilib o'tirganlarimni kuni kechagiday eslayman. Muhitda gap ko'p. Otamning Abdurhamon buva, Rajabov bova, Eshon bova kabi yetti-sakkiz nafar qadrdonlari har o'n, o'n besh kunda uyimizda kitobxonlik qilishardi. Bu suhbatlarda

Navoiy, Fuzuliy, Bedil singari ulug'larimiz g'azallaridan tashqari ishqiy, sarguzasht dostonlar ham o'qilardi. Alpomish, Kuntug'mish, Avazxon, Go'ro'g'li kabi dostonlar qahramonlari otamning do'stlari singari menga ham qadrdon bo'lib qolgan edi. Bunday kechalarda men doim otamning yoniga suqulib olib, xayolan Barchinga aylanardim. Boychiborga dardimni aytardim. Xullas, dostonlar olamida yashardim." Umuman olganda bu she'r benihoya go'zal bir dard, g'oyat ustalik bilan aytilgan gaplardir! She'rda arzi holi bilan yorini ortga qaytarib olishni o'ylaydigan bir ojizaning xiylasi yo'q, aksincha hayotni teran his qilgan, aql-idroki bilan hayot zarbalariga, muhabbat sinovlariga mardonavor javob qaytaradigan, g'ururi baland, ori mustahkam, shu bilan birga sevgisi olovning taftidanda kuchli bir yurak bor! Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi ayol ruhiyati aynan shu jihatlari bilan umrboqiydir!

Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, yetuk vatanparvarlar, mashhur olimalar bilan bir qatorda so'z san'atining g'ururu iftxori sanalgan shoiralar ham bor. O'z davr an'anasiga ko'ra Hindistonda forstojik tilida ijod qilgan sharqning mashhur shoirasi Zebunnisobegim va XIX asr birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhiti o'zbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar shular jumlasidandir. Zebunnisobegimning g'azal va ruboiylari sevgi lirikasining yorqin namunasidir. Uning har bir misrasida abadiy hijron, hajr va firoqning shiddatli to'lqinlari, jafakor yorning sitamlari aks etadi. "Mashohir nisvon" ("Mashhur ayollar) kitobida aytilishicha, Zebunnisobegim bir yigitga yashirin muhabbat qo'ygan ekan. Ming afsuski, u yigit yoshligida o'ldirilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, Zebunnisobegim afsus va nadomatlar bilan quyidagi satrlarni bitadi:

*Yuz bahor oxir bo'lib, har chakkadan joy oldi gul,
Hayfdir – bizning gulimiz zebi dastor o'lmasa.
Har matoga bor xaridor, husnning bozorida,
Ne uchun Zebunniso qarib, xaridor o'lmasa?*

Boshqa ijodkorlardan farqli o'laroq, Zebunnisobegim an'alarini davom ettirgan, uning bevosita izdoshi-hammaslagi Uvaysiy lirikasida ham hijron motivi, hijron dardi yor-mahubdan tashqari, Yaratganga muhabbat yoki o'g'lidan judolik bilan bog'liq. "Uvaysiymen" radifli g'azalida Yaratganga intiqlik bilan intilayotgan solih banda, Payg'ambar alayhissalomga oshiq ummat, haq yo'lidagi piru ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg'ularini izhor etadi:

*To ko'rib xarobotin ta'na etma ey Zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido Uvaysiymen...
Faqir borgohiga qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jon fido Uvaysiymen.*

Shoiraning "Ko'ndalang" radifli she'ri sevgi bobidagi bir haqiqat ifodasi sanaladi. Har bir misrasining tashbehlari samimiy, tili sodda, ifodasi xalqonadir:

*Ma'shuq ermas bo'lmasa vasl ichra nozi ko'ndalang,
Oshiq ermas bo'lmasa so'z-u gudozi ko'ndalang.
Necha kun bedor o'lub hech topmadim andin asar,
Tush aro bo'ldum muyassar e'tirozi ko'ndalang.*

Bugina emas, Uvaysiyning yorga bo'lgan sevgisi, muhabbat lirikasiga oid quyidagi baytlar ham sodda, ravon, ohangdor. So'zlar bag'riga singgan hijron yorqin aks etadi:

*Ko'zlarining firoq'ida tanda lolagun qonlar,
Qilg'ali tomoshosin saf chekibdi mujgonlar.*

Yoki:

*Jafosin chekmayin bo'lmas muyassar senga jononing,
Yurakka dardi tegmay, ta'sir etmas oh-u afg'oning.*

“Sog'indim” radifli hasbi hol g'azalda o'g'li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari, nolayu fig'onlari, sog'inchlari ifodalanadi:

*Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim...
Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin
Ko'z-u ko'nglim ziyosi mohitobonimni sog'indim.*

Zebunnisobegim an'analarining davomchisi, uning izdoshimaslakdoshi Mohlaroyim Nodira ham har on vafoni kuylagan shoiradir. Jafokash taqdir yosh shoirani sevikli yori, ustoz – Umarxondan ayirdi. Umr yo'ldoshini beqiyos qadrlab, uning bilan o'tgan har lahzani ulug' davlat bilgan va shodligu baxtni kuylagan shoira g'azaliyotini Umarxon vafotidan so'ng motam, hajr, firoq, hijron alamlari egalladi. “Oqibat” radifli g'azalida yor vaslidan ayro ko'ngil, visoldan mosuvo qalbning ohu fig'onlari aks etadi:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.*

Faqat bu emas, ushbu davrda yaratilgan har bir g'azali, muxammas, tarje'bandlari, “Firoqnoma”sidagi ruhiy ezilish, abadiy hijrondan shikoyat, zamona zaylidan nolish, yorga intizorlik, uni qo'msash, tanholik va judolikdan nola sadolari har bir ko'ngilga qandaydir mungli, vazmin ta'sir etadi:

*Menki qoldim hajr vayronida besomon bo'lib,
Yor kelmas kulbayi ehzonima mehmon bo'lib.
Dashtu sahro din so'rog'ingni topolmay dard ila,
Aylanib keldim yana g'am uyiga hayron bo'lib.
Sharbati la'ling xumori birla chandon yig'ladim
Qatra-qatra ko'zlarimdin oqdi bag'rim qon bo'lib.*

Bunday mungli, alamli she'rlarni o'qiganda qalbimizdan, ichichimizdan Nodira dardini his etamiz, uni tushunamiz, yuragimizda shoiraga nisbatan cheksiz hurmat-ehtirom, iliq tuyg'ular jo'sh uradi. Bu firoq, bu hajr, tabiiy ravishda shoira Nodirabegim ijodida hijron motivini asosiy yo'nalishga aylantirdi, munis va mahzun satrlar bitishga majbur etdi. Nodirabegim umr yo'ldoshi faqatgina sevikli yor bo'lib qolmasdan, balki uning “g'amxo'r ustoz” – xatolarini tuzatadigan, kamchiliklarini to'ldirgan, ijodiyotida yangiliklar yaratishga undagan “ilhom parilar”i edi. Buni shoira o'z tarjimai holida qayd etgan. Zebunnisobegim ijodida lirik she'rlar bilan bir qatorda tasavvufiy mazmunga ega misralar ham uchrab turadi. Tasavvuf g'oyalarining ifodasida Yassaviy, Boqirg'oni, Bedil, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabilarning ta'sirini kuzatish mumkin. “Deydurman” radifli g'azal ham shoiraning olam va odam haqidagi falsafiy qarashlarining davomidir. Lirik “men” har qanday ovoz va har bir husnda Haqning jamolini ko'radi:

Na un kelsa qulog'ima, sadoyi yor deydurman,

Na tarzi husn ko'rsam , ul ruhi dildor deydurman. [3,58-bet]

Insonning yashashdan murodi komillik ekan, bu darajaga u avvalo pokiza axloq orqali erishadi. Haq yo'liga kirgan inson esa , bedoru xushyor – ko'ngil ko'zi ochiq, g'aflatdan yiroq bo'ladi. Zebunnisobegim qator asarlarida odamlarni g'ofil bo'lmay, atrofidagi voqealardan ogoh bo'lishga chaqiradi. G'azallarida axloqiy mavzuning aks etishi ham Zebunnisobegim ijodi uchun xarakterli. Inson o'z-o'zini anglashi kerakligini quyidagi baytda targ'ib qiladi:

Qilo, ogoh bo'lgil, chashmi tarlarni tamosho qil,

Hama sarmast o'zdin – bexabarlarini tamosho qil [3,55-bet].

Zebunnisobegimning ayrim g'azallarida Yassaviy hikmatlari ta'sirini sezish mumkin. Bu mushtaraklik shundaki , har ikki shoir ijodida ham insonning ichki ma'naviy olami kamoloti asosiy o'rinda turadi. Inson kamolotida kamtarlik, kamsuqumlik, faqirlik muhimdir:

Qachon dunyoga kelding, xalq aro rasvoi olam bo'l,

G'ariblar ostonida itidin doimo kam bo'l [3,50-bet].

Inson yashar ekan, hayotini ibratli va mazmunli o'tkazishi kerak, nafsu havoga berilmay yashamog'i lozim, degan xulosa ilgari suriladi. Nafsparvarlik, buzuq maishat odamni g'ofil qiladi. Shu bois shoir ogohlikka chaqiradi:

O'tarlar barqdek bilsang agar hoy-u xavaslarkim,

Egil uqbo g'aminkim o'lguningcha diydasi ham bo'l [4,51-bet].

Shoira Mohlaroyim Nodira dunyoqarashining takomilida o'zi mansub bo'lgan islom dunyosining ma'naviy ta'siri katta. Shoira devonida Alloh taolo, payg'ambar alayhissalom betakror badiiyat bilan vasf etiladi. Tarixiy obrazlar teran mazmun mutanosibligida talqin qilinadi. Bu shoironing kalom ilmini, islom dini va millatimiz tarixini chuqur bilganidan dalolat beradi. Devon tartib berar ekan, u mavjud an'anaga muvofiq debochani hamd va na'tlar bilan boshlaydi. Ma'lumki, na't g'azal deb Muhammad payg'ambar maqtoviga bag'ishlangan g'azallarga aytiladi. Nodira ijodiyotidagi na't she'rlar ham asosan, vasf, me'rojnoma va shafolat-faxriya mazmunida. Ularda Muhammad payg'ambarning so'nggi payg'ambar ekanligi, olam u tufayli yaratilganligi, qiyomat kunida payg'ambar shafoti bois ummatlarining barcha gunohlari kechirilishi ohorli mazmun va betakror tashbehlar vositasida ifodalanadi. Ahmad (Muhammad) Haq taoloning do'stidir, Ikki olam uning nuridan namoyondir. Gunohlar zulmatidan ne qo'rqinch bo'lsin, Axir (Muhammad payg'ambar) jamolining quyoshi porlagan-ku! Mana bu misralar ham koinot sarvari na'tida Nodiraning o'ziga xos nazm namunalarini yaratgani isbotidir:

Muhammadkim, nabilar xotamidur,

Bisoti lam'i Alloh mahramidur.

Agar har kimsakim tab'iyat aylar,

Saodatning savobi a'zamidur [4,18-bet].

Ikkala she'r mohiyatan bir-birini to'ldiradi. Birinchisida Nodira Muhammad alayhissalom Haq taoloning habibi, ikki olam uning nuridan paydo bo'lgan, uning jamoli quyoshdek hamma yerni yoritib turganda, ma'siyat qorong'iligidan qo'rqinchga o'rin qolmaydi, deb rasuli akramni ulug'laydi. Shoira bu o'rinda dastlab islom dini aqidasisiga ko'ra, olam Muhammad payg'ambar tufayli yaratilgani, unga ummat bo'lish nechog'lik sharaflilik ekani, Rasuli akramning qiyomat kunida o'z

ummatlariga shafe'ligi, jumladan, Nodira ham o'sha ummatlar qatorida shafolatdan umidvorligi ifodalanadi. Munojot g'azaldan olingan mana bu baytda Muhammad payg'ambarning qiyomat kunida o'z ummatlarining gunohini Tangridan so'rovchi shafe'ligi bilan bog'liq qarashlar o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, Nodira o'zining gunog'kor ekanligini aytib, Yaratgandan Muhammad payg'ambarning haqqi hurmati bandalari, jumladan, o'z gunohlarini kechirishni so'raydi:

*Ey Xudo, Ahmadi Muxtorning urug'-aymog'lari haqqi,
Kibriyolik lutfing bilan bandalaring gunohini kechir.*

Mohlaroyim ijodida xulafoi roshidin vasfiga bag'ishlangan she'rlar ko'p bo'lmasa-da, ularning fazilati, islom dini rivojidadagi xizmatlari vasf etilgan misralarni uchratish mumkin. Masalan, mana bu ruboiyda dastlabki to'rt xalifa-islomning ilk davrlarida Abu Bakirning Muhammad alayhissalomga hamrohlik qilib, mushriklardan qochib g'orga yashirinish voqeasi, hazrati Umarning odilligi, Usmon va Alilarning dinni mustahkamlash yo'lidagi xizmatlari tasvirlangan: Erdi Bubakr yori g'or anga, Umar adl etti ustuvor anga, Qildi Usmon charog'idin ravshan, Murtazo erdi do'stivor anga. Umuman, Nodiraning na't va manqabat she'rlarida Muhammad payg'ambarning fazilatlarini, yaqinlarining islom tamadduni yuksalishi-dagi xizmatlari o'ziga xos pafos hamda ohorli tashbehlar vositasida ifodalangan. Darhaqiqat, Zebunnisobegim an'alarining hayotbaxsh ruhi va ta'siri XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhiti o'zbek shoi-ralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolarning bir qancha g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrdagi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu shoiralarning she'rda tilning sodda va ranginligi uchun zahmat chekishlarini Zebunnisobegimga bir izdoshlik harakati, desa aslo xato bo'lmaydi. Ular g'azallarida Zebunnisobegim qo'llagan vaznlar, ko'p iboralar, u g'azallar asosiga olingan ishq, may, do'stlik, hajr, firoq, hijron mavzulari, avtobiografik mavzu va boshqalar keyingi o'zbek shoiralari, xususan, she'riy devon yarat-gan Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar tomonidan rivojlantirildi, chuqurlashtirildi, nihoyasiga yetkazildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keyingi davrlarda yashab qalam tebratgan iste'dodli o'zbek shoirlarining ko'pchiligi yuqoridagi taniqli shoiralarning she'riyatidan nimanidir o'rgangan, boshqa bir madaniyat yutuqlaridan unumli foydalangan. Har qaysi shoira ishq, may, do'stlik, hajr, firoq, hijron va ayriliq mavzularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, hayotni, ezgulikni sevishga, qiyinchiliklarga qarshi tura olishga o'rgatganlar. Ular kuylagan muhabbat, ularning hayoti barchaga ibratlidir. Ularning asarlarida milliyligimiz, ayollarimizning qanchalik go'zalliklari, chiroyli xulqi va odobi, andishasi ufurib turibdi.

Adabiyotlar ro'yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Jabborov N. "O'tkan kunlar"da milliy ruh ifodasi. Uzbek State World Languages University. Philology Matters/ ISSN: 1994-4233. 2020.
2. Худойбердиева, Х. Танланган асарлар. Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2020. Худойбердиева, Х. Чаман. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974, 28-бет.
3. Zebunniso. Majmuai she'rho. T.: 1958.
4. Aziz Qayumov. Nodira. O'zbek tili va adabiyoti masalalari. №1. 2001.